

TANQIDIY FIKRLASHNI RIVOJLANTIRISHDA MUAMMOLI TA'LIM VA MILLIY ILMIY MEROSNING METODIK IMKONIYATLARI

Norqulova Gulsevar G'olibjonovna

Navoiy innovatsiyalar universiteti talabasi
<https://doi.org/10.5281/zenodo.18504112>

Annotatsiya: Ushbu maqolada globallashuv va raqamli taraqqiyot sharoitida talabalarda mustaqil hamda tanqidiy fikrlashni rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslari yoritiladi. Mustaqil fikrlashning psixologik-mantiqiy mexanizmlari, muammoli vaziyatlarda fikr yuritish bosqichlari, interfaol metodlar orqali fikrlashni faollashtirish hamda muammoli ta'limning tanqidiy fikrlashni shakllantirishdagi roli ilmiy tahlil qilinadi. Shuningdek, Forobiy, Beruniy va Ibn Sino merosining zamonaviy ta'lim jarayonida fikrlash metodologiyasi sifatidagi ahamiyati asoslanadi.

Kalit so'zlar: mustaqil fikrlash, tanqidiy fikrlash, muammoli ta'lim, interfaol metodlar, kognitiv kompetensiya, nutq va tafakkur, refleksiya, mantiqiy tahlil.

Аннотация: В статье рассматриваются теоретико-методологические основы развития самостоятельного и критического мышления студентов в условиях глобализации и цифровой трансформации. Анализируются психологико-логические механизмы самостоятельного мышления, этапы рассуждения в проблемных ситуациях, возможности активизации мышления посредством интерактивных методов, а также роль проблемного обучения в формировании критического мышления. Обоснована значимость наследия аль-Фараби, аль-Бируни и Ибн Сины как методологического ресурса современного образовательного процесса.

Ключевые слова: самостоятельное мышление, критическое мышление, проблемное обучение, интерактивные методы, когнитивные компетенции, речь и мышление, рефлексия, логический анализ.

Abstract: This article examines the theoretical and methodological foundations for developing students' independent and critical thinking in the context of globalization and digital transformation. It analyzes the psychological and logical mechanisms of independent reasoning, the stages of thinking in problem-based situations, the potential of interactive methods to activate learning, and the role of problem-based learning in fostering critical thinking. The study also highlights the educational value of al-Farabi, al-Biruni, and Ibn Sina's intellectual heritage as a methodological resource for contemporary education.

Keywords: independent thinking, critical thinking, problem-based learning, interactive methods, cognitive competencies, speech and thinking, reflection, logical analysis.

Kirish. Bugungi globallashuv va raqamli taraqqiyot sharoitida oliy ta'limning ustuvor vazifasi talabalarga "ko'p ma'lumot" berishdan ko'ra, ularni mustaqil va tanqidiy fikrlay oladigan, muammoli vaziyatlarda asosli qaror qabul qiladigan hamda o'z fikrini dalil bilan himoya qila oladigan shaxs sifatida shakllantirishdan iborat bo'lib bormoqda. Axborot oqimi kuchaygan davrda talabaning muvaffaqiyati yod olish (reproduktiv o'zlashtirish) bilan emas, balki axborotni tahlil qilish, solishtirish, baholash, faktni taxmindan ajratish, muqobil yechimlarni topish kabi yuqori darajadagi kognitiv kompetensiyalar bilan belgilanadi. Shu bois mustaqil fikrlash talaba aqliy faoliyatining yuksak ko'rinishi sifatida ta'lim jarayonining markaziy natijasiga aylanishi zarur.

Mazkur maqolada mustaqil va tanqidiy fikrlashning psixologik-mantiqiy mexanizmlari, uning muammoli vaziyatlarda namoyon bo'lish bosqichlari, ta'lim jarayonida interfaol hamkorlik (talaba–o'qituvchi va talaba–talaba) orqali fikrlashni faollashtirish imkoniyatlari hamda tanqidiy fikrlashni shakllantirishda muammoli ta'limning o'rni tahlil qilinadi. Shuningdek, milliy ilmiy meros (Forobiy, Beruniy, Ibn Sino) g'oyalarini zamonaviy pedagogik texnologiyalar bilan uyg'unlashtirish orqali fikrlash madaniyatini rivojlantirishning metodik yo'nalishlari asoslab beriladi. Tadqiqot natijalari ta'lim amaliyotida "tayyor bilim"ga tayanishdan ko'ra, talabaning fikrlash jarayonini ishga soladigan topshiriqlar, munozaralar, refleksiv baholash va dalillash madaniyatini kuchaytirish zarurligini ko'rsatadi.

Natija va muhokama. Bugungi globallashuv va raqamli taraqqiyot sharoitida ta'limning asosiy vazifasi "ko'p ma'lumot berish" emas, balki mustaqil va tanqidiy fikrlay oladigan shaxsni tarbiyalashdan iborat bo'lib bormoqda. **Bu yondashuv O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunida ta'lim tizimini modernizatsiya qilish, ta'lim sifatini ta'minlash hamda shaxsning intellektual salohiyatini rivojlantirishga xizmat qiladigan tashkiliy-huquqiy asoslar bilan uyg'unlashadi** [4]. Chunki zamonaviy jamiyatda fan-texnika yutuqlari, ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar va axborot oqimining keskin jadallashuvi insondan faqat xotira va reproduktiv o'zlashtirishni emas, balki muammo mohiyatini anglash, dalilni taxmindan ajratish, muqobil yechimlarni topish, qaror qabul qilish va o'z fikrini asoslab bera olish kabi yuqori darajadagi kognitiv kompetensiyalarni talab qiladi. **Shu ma'noda raqamli transformatsiya jarayonlari ham ta'limda mustaqil fikrlashni kuchaytiruvchi omil bo'lib, "Raqamli O'zbekiston — 2030" strategiyasi doirasida davlat boshqaruvi, xizmatlar va ijtimoiy sohalar bilan birga kadrlar salohiyatini oshirish ham ustuvor yo'nalish sifatida belgilanadi**[6]. Shu ma'noda fikrlash (fikir yuritish) talaba aqliy faoliyatining, aql-zakovatining, ongli xulq-atvorining va muomala madaniyatining yuksak ko'rinishi sifatida namoyon bo'ladi; mustaqil fikrlash esa tevarak-atrof va ijtimoiy muhitni bilish quroli bo'lib, talabaning keng ko'lamlil aqliy faoliyatini oqilona hamda omilkorlik bilan boshqarishning asosiy sharti sanaladi[1]. Bunda muhim jihat shuki, har qanday yangilik va taraqqiyot inson tafakkurining mahsuli bo'lgani uchun mutaxassisning kasbiy tayyorgarligi ham ko'p jihatdan mustaqil fikrlash darajasiga bog'lanadi.

Mustaqil fikrlashning psixologik-mantiqiy mexanizmi shundan iboratki, talaba fikr yuritish jarayonida fikr, mulohaza, g'oya, faraz va maqsadlarni shakllantiradi; ular shaxs ongida tushuncha, hukm va xulosalar sifatida mustahkamlanadi[1]. Bu jarayon til va nutq bilan uzviy bo'lib, fikrning izchilligi hamda mantiqiy tizimliliigi aynan nutq orqali ravshanlashadi: talaba fikrini bayon etar ekan, u o'z idroki va xulosalarini tekshiradi, fikrning ichki tartibini "ko'rinadigan" holga keltiradi[1]. Shu sababli mustaqil fikrlashni rivojlantirish amalda nutq madaniyatini rivojlantirishdan ajralmaydi: fikr mustaqillashgani sari nutq aniqlashadi, nutq aniqlashgani sari fikr tanqidiy filtrlardan o'tadi. Shu nuqtada talabaning fikrlash faoliyati faqat individual emas, balki ijtimoiy xususiyatga ega ekanligi ko'rinadi: tarixiy taraqqiyot jarayonida insonlar o'zaro ehtiyoj tufayli fikr almashgan, tajriba bilan o'rtoqlashgan, natijada muloqot va so'zlashuv uquvi shakllangan; jamiyat tomonidan to'plangan bilim va ko'nikmalar avloddan avlodga nutq orqali uzatilgani bois insoniyat fan, texnika, madaniyat sohalarida yirik yutuqlarga erishgan. Demak, talaba tafakkuri ham auditoriyada (bahs, munozara, hamkorlik) charxlanadi: fikrning ijtimoiy muhitda sinovdan o'tishi uning pishiqligi va asoslanganligini oshiradi.

Mustaqil fikrlashning “ishga tushish nuqtasi” ko‘pincha muammoli vaziyatdir. Talabada muammo idrok maydonida paydo bo‘ladi, masala mohiyati anglashiladi, o‘xshash obraz va ma’lumotlar xotirada faollashadi, farazlar tug‘iladi, farazlar tekshiriladi va takomillashadi, ikkilamchi verifikatsiya qilinadi, nihoyat yechim topiladi; bundan keyin ham fikrning nisbiy davomiyligi saqlanib, yangi savollar tug‘ilishi mumkin. Ushbu ketma-ketlikni ilmiy tahlil qilganda, mustaqil fikrlash “ilhom”ga qaram bo‘lmagan, balki tashkillashtiriladigan kognitiv jarayon ekanligi yaqqol ko‘rinadi: demak, uni o‘qitish ham, baholash ham, pedagogik texnologiyalar orqali faollashtirish ham mumkin. Ayniqsa, tahliliy tafakkur sifatleri — tezlik, egiluvchanlik, o‘ziga xoslik, sezuvchanlik kabi jihatlar ijodkorlikni qo‘llab-quvvatlaydi va mustaqil bilim olishni samarali tashkil etishga xizmat qiladi[1]. Biroq zamonaviy ta’lim amaliyotida muammo shundaki, oliy o‘quv yurtlarida akademik ta’lim ko‘pincha haqiqiy hayot talablaridan ajralib qoladi: “tayyor” umumiy va kasbiy bilimlar amaliy vaziyatlarga mos kelmaganda, talabada o‘qishga qiziqish susayadi, o‘zlashtirish ko‘proq reproduktiv darajada qoladi, natijada bilim sifati pasayishi kuzatiladi. Hayot esa fanlarni faqat kognitiv o‘zlashtirish bilan cheklanmaslikni talab qiladi: talaba ma’lumotni qayta aytishdan ko‘ra, uni tahlil qilish, solishtirish, baholash, amaliy muammolarga tatbiq etish darajasiga ko‘tarilishi kerak[2]. Bu yerda yana bir ijtimoiy-psixologik omil ham mavjud: ayrim madaniy stereotiplar (kattalarning irodasiga so‘zsiz bo‘ysunish, “eng oson yo‘l”ni tanlash, amaliy ziddiyatlardan chetlab o‘tish) ko‘p hollarda ijodiy fikrlashni cheklab qo‘yishi mumkin. Bu xulosani “mentalitetni inkor qilish” tarzida emas, balki ta’lim dizaynini to‘g‘ri qurish zarurati sifatida talqin etish maqsadga muvofiq: talaba hurmat va intizomni saqlagan holda savol berish, dalil so‘rash, fikrini himoya qilish madaniyatini o‘rganishi lozim. Bunga erishishning muhim yo‘li — interfaol metodlar orqali “talaba-o‘qituvchi” va “talaba-talaba” hamkorligini maqsadli tashkil etishdir[2]. Interfaol yondashuv o‘quvchining faolligi va ijodkorligini rag‘batlantiradi, mustaqil fikrlashni shakllantirish bilan birga ta’lim maqsadining to‘laqonli amalga oshishiga yordam beradi.

Talaba munozarada ishtirok etib o‘z fikrini bayon etsa, boshqalarni tinglab xulosa chiqarsa, kuchsizroq o‘quvchiga tushunarsiz joyni izohlab bersa yoki bitta kognitiv muammo uchun bir nechta yechim variantini taklif qila olsa, u amalda mustaqil fikrlash kompetensiyasini rivojlantirayotgan bo‘ladi. Bu jarayonning eng muhim natijasi shuki, talaba fikrning mustaqilligi — shaxsiy tashabbus, aniq maqsad, faraz, kutilayotgan natijani ko‘z oldiga keltirish va muammoni ko‘maklarsiz hal qilish qobiliyati ekanini o‘z tajribasida his etadi. Zamon talabi endilikda mustaqil fikrlash bilan birga tanqidiy fikrlashni ham strategik kompetensiya sifatida ilgari surmoqda.

Ijtimoiy hayotning murakkablashuvi, oldindan aytib bo‘lmaydigan o‘zgarishlar va bitta “to‘g‘ri chiziqli” fikrlash modelining yetarli bo‘lmay qolishi jamiyatni shubha ostiga ola biladigan, dialogga kirishadigan, muammoning mohiyatini aniqlaydigan, muqobil yechimlarni ko‘ra oladigan, faktni taxmin va shaxsiy fikrdan ajrata oladigan shaxsga ehtiyojmand qilib qo‘ydi[3]. Shu sababli darslarni demokratik tamoyillar asosida, ilg‘or pedagogik texnologiyalar bilan o‘tkazish, noan’anaviy faoliyatlarni ta’lim jarayonining ajralmas qismiga aylantirish zamonaviy pedagogika kun tartibiga chiqdi. Tanqidiy fikrlashni shakllantirishda muammoli ta’lim alohida ahamiyat kasb etadi: muammoli vaziyatda tanqidiy fikrlash dalillarni tekshirish, rad etish va farazlarni qayta ko‘rib chiqish bosqichlarida ayniqsa faol “ishlaydi”. Shunday ekan, talabaning “to‘g‘ri fikrlash qonunlari”ni (mantiqiy izchillik, asoslangan xulosa, dalilga tayanish) o‘zlashtirmasligi faktlarni baholash, asosli rad etish, voqealarga malakali baho berish hamda

o'z-o'zini tanqid qilish ko'nikmalarini shakllantirishni qiyinlashtiradi. Mazkur jarayonni milliy ilmiy meros bilan boyitish pedagogik samaradorlikni kuchaytiradi. Sharq uyg'onish davri mutafakkirlari — Forobiy, Beruniy, Ibn Sino, Xorazmiylar merosi bugun ham dars mazmunini boyitish va o'quvchini mustaqil fikrlaydigan shaxs sifatida tarbiyalash uchun metodik resurs bo'lib qolmoqda[3]. Forobiy tafakkurning mantiqiy operatsiyalari, umumlashtirish va mavhumlashtirish, analiz va sintez kabi xususiyatlarini ta'kidlab, fikrning pishiqligi va tanqidiyligini mantiqiy tartib bilan bog'laydi; uning nutq ravonligi va fikrni aniq bayon qilish haqidagi qarashi mustaqil fikrning kommunikativ mezonini ochib beradi. Beruniy esa hodisa va voqealarni solishtirish, qiyoslash, tahlil qilish orqali rostni yolg'ondan ajratish mumkinligini ko'rsatib, taqqoslash metodini bilimning amaliy foydaliligi va ishonchliligini izlash mexanizmi sifatida talqin qiladi[1]. Ibn Sino ilmiy-mantiqiy bilish orqali did va tafakkur doirasi kengayishini, mantiqni egallash fikrni "cho'kib ketishdan" saqlashini uqtiradi[1]. Bu merosni bugungi auditoriyaga tatbiq etishning eng to'g'ri yo'li — ularni shunchaki tarixiy ma'lumot sifatida emas, balki fikrlash metodologiyasi sifatida ishlatish: Forobiycha mantiqiy tahlil, Beruniycha qiyosiy tekshiruv, Ibn Sinocha dalil-xulosa madaniyatini amaliy topshiriqlar bilan mustahkamlash. Shu bilan birga, ta'lim jarayonida interfaol yondashuv, muammoli ta'lim, munozara va refleksiya mexanizmlarini uyg'unlashtirish talabaning intellektual salohiyatini, huquqiy ong va huquqiy madaniyatini ham yuksaltirishga xizmat qiladi.

Mazkur yo'nalish yoshlarga oid davlat siyosatini ro'yobga chiqarish doirasidagi normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini kelishish, takomillashtirish va amaliyotga joriy etish mexanizmlari bilan ham mustahkamlanadi; xususan, "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi Qonunda yoshlarga taalluqli normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini maxsus vakolatli organ bilan majburiy kelishish tartibi nazarda tutilgani, amalda mustaqil fikrlaydigan yoshlar salohiyatini qo'llab-quvvatlashni tizimlashtirishga xizmat qiladi[5]. Bunday strategiya davlat siyosati darajasida ham muhim yo'nalish sifatida qayd etilib, yoshlarning mustaqil fikrlaydigan, yuqori intellektual va ma'naviy salohiyatli bo'lib kamol topishi jamiyat taraqqiyotining asosiy kafolatlaridan biri sifatida talqin etiladi. Xulosa qilib aytganda, ushbu manbaalarda ilgari surilgan g'oyalarni birlashtirgan holda shuni ta'kidlash mumkinki: mustaqil fikrlash — talabaning kasbiy va shaxsiy kamolotini belgilovchi tayanch kompetensiya, tanqidiy fikrlash esa uni zamonaviy axborot va o'zgarishlar sharoitida himoya qiluvchi, dalilga asoslovchi va muqobil yechimlar sari yetaklovchi mexanizmdir. Mustaqil fikrlashni shakllantirish muammoli vaziyatlardan boshlanadi; interfaol hamkorlik va mantiqiy operatsiyalar orqali chuqurlashadi; nutq va muloqot orqali tizimlashadi; milliy ilmiy meros va zamonaviy pedagogik texnologiyalar uyg'unligida esa barqaror kompetensiyaga aylanadi. Shu bois ta'lim jarayonida "tayyor bilim"ni uzatishdan ko'ra, talabaning fikrlash bosqichlarini ishga soladigan vazifalar, munozaralar, muammoli topshiriqlar va refleksiv baholash tizimi ustuvor bo'lishi zarur: shundagina talaba oddiy holatlarda ham mohiyatga kirib boradi, umumiy qonuniyatlarni izlaydi, yangi g'oya va tavsiyalar bera oladigan sermahsul tafakkur egasiga aylanadi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Academic Research in Educational Sciences. Multidisciplinary Scientific Journal. Volume 3, Issue 4. 2022. B. 614–619. DOI: 10.24412/2181-1385-2022-4-614-619.

2. Yosh olimlar. Ilmiy-amaliy konferensiya materiallari: Talabalarda mustaqil fikrlashni rivojlantirishning dolzarbligi va interfaol metodlar. in-academy.uz. 2024. B. 5–6.
3. “Modern trends of teaching in the context of innovative and digital technologies in higher education: prospects, problems and solutions” International Scientific and Practical Conference. 2024-yil 29-noyabr. B. 611–612.
4. O‘zbekiston Respublikasi Qonuni. Ta‘lim to‘g‘risida. O‘RQ-637-son. 23.09.2020. Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi (Lex.uz).
5. O‘zbekiston Respublikasi Qonuni. Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida. O‘RQ-406-son. 14.09.2016 (o‘zgartishlar bilan). Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi (Lex.uz).
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoni. “Raqamli O‘zbekiston — 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida. PF-6079-son. 05.10.2020. Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi (Lex.uz).